

Inflyatsiyaning Mamlakat Iqtisodiyotiga Ta'sirining Tahlili Va Uni Bartaraf Etish Yo'llari

L. A. Urinov¹

Annotatsiya: O'zbekistonda bozor sohasining barcha sektorlarida narxlar dinamikasini tahlili amalga oshiriladi. Ushbu maqolada xalqaro amaliyotda qabul qilingan standartlarga muvofiq narxlarni ro'yxatga olishning qo'llaniladigan usullari va tamoyillari statistik ma'lumotlarning yuqori sifati ta'minlangan hamda inflyatsiyaning uslubiy jihatlari, narxlar indeksi tizimini hisoblash uchun iqtisodiy axborotlarni yig'ish va qayta ishslash usullaridan foydalilanilgan. Narx katgoriyasining asosiy tushunchalari, narxlarni ro'yxatga olish tamoyillari, narx indekslarini hisoblash usullari va narx tahliliy ko'rsatkichlari tizimi keltirilgan.

Kalit so'zlar: Inflyatsiyaning mohiyati, Inflyatsiyaning yuzaga chiqish sabablari, Inflyatsiyaning shakillari, Inflyatsiyaning turlari, Istemol narxlari indeksi (INI), YAIM deflyatori.

Jahon miqyosida globalashuv jarayonlari kechayotgan va milliy xo`jaliklar bir-biri bilan bog`lanib, yagona bozor munosabatlariga asoslangan yaxlit tizimga aylanib borayotgan bir paytda inflyatsiya kategoriyasi muhim tushuncha hisoblanadi.

Inflyatsiya bozor iqtisodiyoti sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikning ko`rsatgichlaridan biridir.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar negizida asosiy maqsad fuqarolarining real daromadlari va real oylik maoshlarini tezroq o'stirishga qaratilganligi hamda kambag'allik darajasini qisqartirish g'oyat muhim masalalardan biridir².

Mana shu islohotlarni natijasida so`nggi yillarda ish haqi, pensiya va nafaqalar miqdorini oshirish, jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq stavkalarini kamaytirish, inflyatsiya darajasini pasaytirish bo'yicha ko`rilgan chora-tadbirlar natijasida aholining yalpi va real daromadlari sezilarli ravishda oshdi, uning xarid qilish qobiliyati barqaror sur'atlarda o'sib bormoqda.

Bozorda iste'mol talabining pasayishi narx-navo oshishini chegaralasada, keyinchalik pul mablag`larining katta miqdorda emissiyasi hisobidan banklar likvidligini saqlab turish maqsadida banklar va moliya sektorining juda katta miqdorda pul kreditlari bilan to`ldirilishi jahon tajribasi ko'rsatishicha inflyatsiya jarayonlari keskin kuchayib ketish xavfini yuzaga keltirgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida inflyatsion jarayonlar bozor qonuniyatlari asosida belgilanadi. Shunga qaramasdan, inflyatsion jarayonlarni o`rganish barcha mamlakatlarda dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Shu sababli ushbu masalalar bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar har qanday mamlakat uchun muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiyotda narxlar umumiylar darajasining muttasil va doimo oshib borishiga inflatsiya deyiladi. Iqtisodiyotdagi barcha tovar va xizmatlarga o`rtacha narxlarning oshishini ayrim tovar va xizmatlar guruhlariga nisbiy narxlarning o`zgarishi bilan farqlash lozim. Odatta narxlarning umumiylar oshishi nisbiy narxlar tarkibining o`zgarishi bilan bog`langan bo'ladi, ammo inflatsiya deb nisbiy narxlarning o`zgarishi emas, balki umumiylar narxlarning oshishi hisoblanadi. Ayrim muhim tovarlarga nisbiy narxlarning o`zgarishi (masalan, elektr energiyasi yoki neft mahsulotlariga) ko'pincha, inflatsiyaga

¹ Toshkent moliya instituti, Andijon fakulteti, "Mutahassislik fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

² Sufiyeva K. S . "Ways to income of the population in the economic system and analysis of the statistical approach" Multidisciplinary and multidimensional journal vol.2, №5 November 2023.



qarshi olib borilayotgan iqtisodiy siyosatga qaramasdan, umumiy inflatsiyaga olib keluvchi jarayonlarni boshlab berishi mumkin.

Boshqariladigan narxlarning (monopolist korxonalar ishlab chiqaradigan tovar va xizmatlarga) oshirilishi dastavval umumiy narxlarning oshishiga olib keladi. Biroq u o‘z navbatida nisbiy narxlarning ham o‘zgarishiga olib keladi. Bunda asosiy inflatsiya tezlashuvi shart emas, chunki asosiy inflatsiya kam uchraydigan bir yo‘lakay boshqariladigan narxlar, aksiz soliqlari yoki valuta kursidagi o‘zgarishlarni hisobga olmagan holda hisoblanadi. Asosiy inflatsiyani har doim ham aniq hisoblash qiyinroq bo‘lsada, u iqtisodiy siyosatda inflatsiya sur’atlari ko‘rsatkichlariga nisbatan muhimroq mo‘jal sifatida tan olingan. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarning mutaxassislari bu mamlakatlarda tizimiyl islohotlar o‘tkazilish sababli ko‘pgina tovar va xizmatlar narxlariga tuzatishlar kiritilishi munosabati bilan inflatsiya sur’atlariga nisbatan asosiy inflatsiya sur’atlariga ko‘proq e’tibor berishlari lozim.

Bir yo‘lakay ayrim tovarlarga, ayniqsa juda muhim hisoblangan energoresurslarga narxlarning oshirilishi, albatta butun iqtisodiyotda narxlarning (shu jumladan ish haqining ham) oshishiga olib keladi. Agar mamlakatda qattiq pul-kredit siyosati olib borilmasa, bir yo‘lakay narxlarning oshishi muttasil inflatsiya sodir bo‘lishiga olib keladi (bunday inflatsiya xarajatlarning oshishi hisobiga sodir bo‘lgan, deb nomlanadi). Oldin xarajatlar oshib, keyin u muttasil inflatsiyaga olib kelgan misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Yaqqol misol sifatida 1990-yillarda nisbiy narxlardagi farqlarni kamaytirish yo‘nalishida bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarda neft va gazning dunyo narxlariga o‘tkazilishi munosabati bilan sodir bo‘lgan karaxtlikni keltirish mumkin. Bir qancha mamlakatlarda energoresurslarga narxlarning o‘sishi boshqa narxlar va ish haqining o‘sishi bilan qorejaishiga harakat qilinganligi kuchli inflatsiya jazavasiga olib keldi. Shu davrda ayrim mamlakatlar qattiq moliyaviy siyosat yuritishlari va nisbiy narxlarni tuzatish davrida aholi tomonidan real daromadlarining pasayishi masalasida tushunish mavjud bo‘lganligi natijasida inflatsiyani nazoratga olishga muvaffaq bo‘ldilar.

Inflyatsiya va uning kelib chiqish sabablarini dastlab klassik iqtisodchi olimlar (K.Smit, D.Rikardo), miqdoriylik nazariyasi tarafdarlari (Sh.L.Monteskve, D.Yum, J.Miller, I.Fisher, A.Marshall, A.Pigu, D.Robertson), keyinchalik monetaristlar (K.Brunner, A.Maltser, L.Leydlerva, M.Fridmen) hamda keynschilar maktabi vakillari tomonidan o‘rganilgan. Bundan tashqari B.Ouken, P.Samuelson, J.R.Xiks, A.Xensen, L.Xarris, E.Dollar, J.Tobin, K.Makkonel, S.Bryu kabilarning mazkur muammoga oid tadqiqotlar diqqatga sazovordir.

O‘zbekistonda bu muammolar bilan iqtisodchi olimlardan S.S.G`ulomov, M.Sharifxo`jaev, Sh.Shodmonov, A.Qodirov, V.Chjen, A.O`Imasov, T.Malikov, Yo.Abdullaev, T.Jo`raev, T.Qoraliev, O.Namozov, A.Nabixo`jaev, M.Yusupov, G.Saidova kabi bir qator olimlar shug`ullanganlar va e’tiborga loyiq fikr mulohazalarini bildirganlar.


Yurtimiz olimlari tomonidan iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida va mamlakatimizdagи ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va xalqaro iqtisodiy globallashuv jarayonida inflayatsion jarayonlar va uni statistik o‘rganish masalalari etarli darajada yoritilmagan. Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida inflayatsion jarayonlarni statistik o‘rganish uslubiyati mavzusiga bag`ishlangan ushbu Magisrtlik dissertasiya ishining dolzarbligini belgilaydi.

Mamlakatimizda inflayatsiya darajasi xalqaro amaliyotda qo‘llanilganidek, iste’mol narxlari indeksi (INI) ni hisoblashda iste’mol savatchasiga kiritilgan 386 ta tovar va xizmatlar narxlarining o‘zgarishi asos qilib olinmoqda. Shuningdek, INI va shu kabi ko‘rsatkichlarni hisoblashda va prognoz qilishda qisqa va uzoq muddatli indekslardan foydalilaniladi. Indekslarning o‘rtacha oylik darajasini hisoblash xodisaning umumiy o‘zgarishini baholash uchun etarli bo`lmaydi, buning uchun albatta o‘rtacha oylik indekslardan kelib chiqib oldingi yil dekabriga, oldingi yil mos davriga, oldingi chorakka, o‘tgan yilning mos choragiga nisbatan narxlar o‘zgarishini hisoblash zaruriyati tug`iladi. Indekslarning xossalari va xalqaro tajribada tan olingen usullardan foydalananib yuqorida sanab o‘tilgan uzoq muddatli indekslarni ham hisoblash mumkin bo`ladi.




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BO'YICHA YIG'MA ISTE'MOL NARXLARI INDEKSI (INI), % da

2023- yilning dekabrida oylik yig'ma INI 101,2 % tashkil etdi. Yillik nisbatdagi (2022- yilning dekabriga nisbatan) yig'ma INI 108,8 % darajasida qayd etildi



³(1-chizma)

2023-yilning yanvar- dekabrida yig'ma INI o'rtacha oylik o'sish sur'ati 0,7 % ga yetdi. Bu, bir yil avvalgi ko'rsatkichdan 0,2 foiz bandga va 2021- yildagi ko'rsatkichdan 0,1 foiz bandga past bo'ldi.




2-chizma. 2019-2023 yillarda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yig'ma iste'mol narxlari indeksi (INI) dinamikasi, % da⁴

Ushbu chizmadan ko'rinish turibdiki, 2023- yilning yanvar- dekabrida yig'ma INI o'rtacha oylik o'sish sur'ati 0,7 % ga yetdi. Bu, bir yil avvalgi ko'rsatkichdan 0,2 foiz bandga va 2021- yildagi ko'rsatkichdan 0,1 foiz bandga past bo'ldi. 2020 yilda ushbu ko'rsatkich 0,9 % ni, 2019 yilda esa 1,2 % ga yetgan.

³ Chizma muallif tomonidan statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

⁴ Chizma muallif tomonidan statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.



(davr ohiriga, yillik hisobda, foizda)

Iste'mol narxlari indeksi (INI) va uning asosiy komponentlari, YAIM deflyatori⁵

YAIM deflyatori- Bu ma'lum bir davr qiymati darajasi uchun bazaviy davrning pul-iqtisodiy ko'rsatkichlarini qayta hisoblash uchun mo'ljallangan koeffitsientdir. Deflator - statistik ma'lumotlarni qabul qilish, ma'lumotlarni tuzatish uchun ishlatiladigan ko'rsatkichidir. YaIM deflyatori YaIM, YaIM va narxlar indeksini tahlil qilish uchun ishlatiladi. Hisoblash foiz sifatida amalga oshiriladi

YaIM deflyatori mamlakat ichida yaratilgan barcha pirovard tovar va xizmatlar narxining umumiyo`zgarish darajasini ifodalaydi. O`zbekiston mustaqillikka erishganidan so`ng mamlakatdagi yirik ishlab chiqarish korxonalari inqirozga uchradi. Bunga sabab yirik ishlab chiqarish korxonalari ittifoqdosh mamlakatlar bilan kooperatsiyalashgan holda faoliyat yuritganligi va bu aloqalarning uzilib qolganligidir.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, inflyatsiyaga qarshi siyosat olib borilayotganda faqat monetar soha bo'yicha chora-tadbirlar bilan chegaralanib qolmasdan, qo'shimcha nomonetar chora-tadbirlar ham qo'llash lozim. Bundan tashqari, uzoq va qisqa muddatga mo'ljallangan siyosat ham ishlab chiqilishi kerak.

Pul islohoti pul tizimi va uning muomalasini tartibga solish uchun davlat tomonidan ko'rildigani oxirgi va keskin chora hisoblanadi.

Inflyatsiyaga qarshi ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish quyidagi natijalarga olib kelishi mumkin:

Mamlakatda bank tizimining barqarorligini mustahkamlanishiga. Tijorat banklari va mijozlar ortasidagi o'zaro munosabatlар mexanizmi sifatining yaxshilanishiga. Naqd va naqd pulsiz to'lovlar o'rtasidagi farqning yo'qolishiga.

⁵ Chizma muallif tomonidan statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi



Soliq tizimini yanada takomillashtirish soliqlar va majburiy to'lovlar tufayli inflyatsiya ta'sirini kamaytiradi va shu bilan birga soliq tushumlarining ko'payishiga va ishlab chiqarishning barqaror o'sishiga olib keladi;

Iqtisodiyotning real sektori kichik biznesga katta hajmdagi investitsiyalar hajmining oshishiga olib kelmoqda. Ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni jalb etish va ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish natijasida mahsulot turlari kengayib, ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobat kuchaydi. Bu, o'z navbatida, ichki bozorda mahsulot narxini pasayshiga, aholining to'lov qobiliyatini oshirishiga, inflyatsiya darajasi o'zgarmasligini ta'minlaydi.

Asosiy adabiyot

1. Dejan Soshkić (2015). Inflation Targeting Challenges in Emerging Market Countries: The Case of Serbia, ECONOMIC ANNALS, Volume LX, No. 204 /January – March 2015 UDC: 3.33, pp 7-30.
2. Tolstolesova L.A. – “Inflyasionnoye targetirovaniye: preimushyestva I ograniceniya ispolzovaniya”. <https://research-journal.org/wpcontent/uploads/2015/12/11-1-42.pdf#page=116>
3. Jigayev A. Yu. Denejno-kreditnaya politika v Novoy Zelandii // Dengi i kredit. — 2010. — № 2. https://www.nifi.ru/images/FILES/Journal/Archive/2011/1/statii/2011_01_09.pdf
4. Jumayev N.X., Absalamov A.T. “Inflyasion targetlash rejimini qo'llash makroiqtisodiy barqarorlik va aholi faravonligini ta'minlashning zaruriy sharti” review.uz – CEDR iqtisodiy tahlil jurnali – Toshkent, 2020 yil, yanvar. – 18 bet.
5. Sufiyeva K. S . “Ways to income of the population in the economic system and analysis of the statistical approach” Multidisciplinary and multidimensional journal vol.2, №5 November 2023. 45-50 page.

Veb-saytlar:

6. <http://www.cbu.uz> (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki)
7. <http://www.stat.uz> (O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi statistika agentligi)

